

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Huquqshunoslik fakulteti

«Umumiy huquqshunoslik» kafedrası

Ergashev Begzod

ASHYOVIIY HUQUQ MASALALARI

«5380100-Yurisprudensiya» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

«Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi»

Kafedra mudiri:
Dots.A.G'ulomov

«_____»_____2012 y

Ilmiy rahbar: y.f.n.G'ulomova A.

«_____»_____2012 y.

Taqrizchi: kat.o'q. G'aniyev M.G.

«_____»_____2012 y

S A M A R Q A N D – 2012

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-5
--------------------	------------

I-BOB. Ashyoviy huquq va uning turlari

1.1. Ashyoviy huquq tushunchasi.....	6-9
1.2. Ashyoviy huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida ashyolar...	10-14
1.3. Ashyoviy huquq turlari.....	15-26

II-BOB. Ashyoviy huquq sifatida - mulk huquqi

2.1. Mulk huquqi tushunchasi.....	27-30
2.2. Mulk huquqining mazmuni.....	31-35
2.3. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lishi.....	36-44

Xulosa.....	45-46
--------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	47-49
--	--------------

Kirish

Tadqiqiot ishining yangiligi. Binobarin, har doim, hamma davrda va barcha tuzumlarda mulk huquqi ham iqtisodiy, ham siyosiy mustaqillikning hal qiluvchi sharti bo'lgan. Bu nima degani? Agar men nimagadir ega bo'lsam, ana shu mulkdan o'z manfaatlarim yo'lida foydalanaman va uni tasarruf etaman, demak, men mulk egasiman. Xuddi shu yerda mening shaxsiy erkinligim, mustaqilligim va ayni vaqtda jamiyatdagi boshqa odamlar orasidagi o'zaro aloqalarimning asosi bor¹.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin amalga oshirilgan eng buyuk ishlardan biri bu 1990 yil 31 oktyabrda «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi va unda xususiy mulkchilikning e'tirof etilishi bo'ldi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov xususiy mulkning jamiyatda tutgan o'rniga alohida e'tibor bergani holda, «Biz xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzluksiz o'sib borayotgan ko'p ukldli iqtisodiyotni rivojlantirish tarafdorimiz. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda tom ma'nodagi mulkdorlar sinfining ko'pchiligini tashkil etishi ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi», degan fikrlarni bayon qilib o'tgan². Mamlakatimizda mulkning daxlsizligi, har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli ekanligi, iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligining o'sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo'lishiga ruxsat berilganligi, mulkchilikning hamma shakllarining daxlsiz bo'lishi va ularning rivojlanishi uchun teng sharoit yaratilishi ushbu qonun bilan kafolatlanganligi belgilab qo'yildi. Mulkchilik – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlardir.³

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston. 2011.229- b.

² Xalq so'zi. 2000 yil. 24 yanvar

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.634-b.

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mulkka bo'lgan munosabat keskin o'zgardi. Boshqa mulk shakllari qatorida xususiy mulkchilik ham tan olindi va u konstitusion normalarda mustahkamlab qo'yildi.

Bozor iqtisodiyoti davrida mulk orqali vujudga keladigan munosabatlar doirasi ancha kengaydi. Ularning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi, «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun⁴larida belgilab qo'yildi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining ikkinchi bo'limi bevosita «Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar» deb nomlanib, unda ashyoviy huquq va uning barcha jihatlariga tegishli normalar o'rin oldi. Ashyoviy huquq – ashyo ustida egalik qilish imkoniyatini ta'minlab beradigan huquq sifatida baholanadi. Ashyo ustida uni egallab turgan shaxs nafaqat mulk huquqiga, balki xo'jalik yuritish va operativ boshqarish, yer uchastkalaridan doimiy foydalanish, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkalariga egalik qilish va undan foydalanish hamda servitut huquqlariga ega bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari ashyo ustida bir emas, balki, ikki va undan ortiq shaxslar ham egalik qilish huquqlarini amalga oshirishlari mumkin. Umumiy mulk instituti normalari ana shunday imkoniyatni ta'minlab beradi. Shu bilan birga ashyoviy huquqlarni himoya qilish vositalariga to'xtaladigan bo'lsak, vindikasion va negator da'volardan tashqari, mavjud majburiyat munosabatlardan kelib chiqadigan himoya qilish usullaridan, hamda fuqarolik qonunchiligida mavjud boshqa himoya qilish usullaridan ham foydalanish mumkin.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda ashyo ustida o'rnatiladigan imkoniyatlardan ashyoviy huquq va uning ko'rinishlaridan biri va markaziy instituti hisoblanadigan mulk huquqiga tegishli jihatlarini ilmiy nuqtai nazardan yoritishga harakat qilamiz.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu har doim ilmiy nuqtai nazardan tadqiqot obyekti sifatida o'rganib kelingan. Jumladan, Abdusalamov M.E., Azimov M.K., Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V., Dobrinin A., Zakirov

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992. №1, 43-modda.

I.B., Ibratov B.I., Rahmonqulov X.R., Rahmonqulov M.X., Ro'zinazarov Sh.N., Ruziyev R.J., Suleymenov M.K., Usmonov M.B., Xolmo'minov J.T., Shodmanov F.Yu., Sindarov K.O.kabilarning ilmiy ishlari shu nuqtai nazardan e'tiborli.

Tadqiqotning metodologik va ilmiy-nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy shining metodologik va nazariy asosini O'zbekistan Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mustaqil o'zbek davlati va milliy huquqiy tizimi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, milliy istiqlol mafkurasi, mustaqqillik g'oyasi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlat huquqiy asoslarini yaratish hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi funtamental asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ishda ashyoviy huquq tushunchasi, ashyoviy huquqiy munosabatlarning obyekt sifati, ashyoviy huquq turlari, ashyoviy huquq sifatida - mulk huquqi, mulk huquqi tushunchasi, mazmuni, mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlar huquq nuqtai nazaridan tahlil qilib beriladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati - tadqiqotda keltirilgan takliflardan, xulosalardan fuqarolik huquqi, xo'jalik huquqi, tadbirkorlik huquqi, shartnoma huquqi fanlari bo'yicha yuridik ta'lim muassasalarida talabalarga dars berishda, tadqiqotchilar tomonidan ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilish. Kirish, olti paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. ASHYOVIY HUQUQ VA UNING TURLARI

1.1. Ashyoviy huquq tushunchasi

1.2. Ashyoviy huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida ashyolar.

1.3. Ashyoviy huquq turlari

1.1. Ashyoviy huquq tushunchasi

Ashyoviy huquq – fuqarolik huquqining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Ashyoviy huquq institutiga nisbatan mavjud yuridik adabiyotlarda u yoki bu tarzda izohlar berilgani holda, aniq bir ta’rif ko’zda tutilmagan⁵. Ashyoviy huquq fuqarolik huquqi subyektlarining ashyolar ustida o’rnatgan mutloq huquqidir. Shaxslarning moddiy ne’matlarga tegishli bo’lgan ashyoviy huquqlari «Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar» nomi ostida Fuqarolik kodeksining II-bo’limidan joy egallagan. Mol-mulk ustida fuqarolik huquqi subyektlari o’z hukmronligini ashyoviy huquq orqali amalga oshiradilar.

O’zining huquqiy tabiatiga ko’ra ashyoviy huquqqa tegishli bo’lgan sifatlarni quyidagicha baholash mumkin:

Birinchidan, ashyoviy huquq - bu fuqarolik huquqi subyektlariga tanilgan mutloq huquq hisoblangani holda, bu belgisi bilan nisbiy ya’ni majburiyat huquqidan keskin farq qiladi. Ashyoviy huquq egasi ashyo ustida o’z huquqlarini amalga oshirish jarayonida bu huquqni amalga oshirishga to’sqinlik qilayotgan har qanday shaxsga nisbatan o’zining e’tirozlarini ilgari surishi mumkin. Majburiyat huquqida esa majburiyat ostidagi shaxs aniq bo’lgani holda, talab o’sha shaxsga nisbatan ilgari suriladi. Shartnomani bajarmagan yoki zarar yetkazgan subyekt - qarzidor sifatida namoyon bo’ladi. Majburiyat huquqi shaxslar o’rtasidagi majburiyatga oid (shartnomalai va shartnomadan tashqari) munosabatlarini tartibga

⁵Professor. H.Rahmonqulov ashyoviy huquq mutloq huquq hisoblangani holda, har bir rivojlangan davlat fuqarolik qonunchiligining ajralmas tarkibiy qismidan iborat degan fikrni ilgari suradi. /O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif sharhlar. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1997, 314 – 315. b prof.I.B.Zokirovning fikriga ko’ra, ashyoviy huquqlar mulkdorning roziligi bilan uning mol-mulkini boshqa shaxslar tomonidan egallash, foydalanish tartibini belgilovchi boshqa vositalar sifatida tuzilishi mumkin. / Fuqarolik huquqi. Birinchi qism. Darslik. – T.: TDYuI 2009, 425-b.

solgani holda, ashyoviy huquq shaxslarni mol-mulkka tegishli bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri munosabatlarini belgilab beradi.

Ikkinchidan, ashyoviy huquq subyekti o'z manfaati yo'lida ashyoga egalik qilishi undan foydalanishi, ko'pchilik hollarda uni taasarruf qilishi (boshqa birovga murojaat qilmasdan) mumkin. Bu belgi ashyoviy huquqni majburiyat huquqidan farqlovchi yana biri muhim belgisi hisoblanadi. Ashyoga nisbatan majburiyat huquqiga ega bo'lgan shaxs (m: mulk ijarasi shartnomasi, mulkdan tekin foydalanish shartnomasi) unga nisbatan vakolatlarni (mulkni egallash, foydalanish) faqat shartnomaga muvofiq amalga oshira oladi. Fuqarolik kodeksining 535 – moddasiga muvofiq, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Bu yerda guvohi bo'lganimizdek, ijaraga oluvchining ashyodan foydalanishdagi huquqlari shartnoma doirasidan chetga chiqmaydi.

Uchinchidan, ashyoviy huquqlarning majburiyat huquqidan farqlovchi muhim belgisi, bu ular ro'yxatining aniq belgilanganligi hisoblanadi. Majburiyat turlari bir qancha shakllarda uchraydi. Ular qonunda nazarda tutilgan shartnomalardan va boshqa bitilardan shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'lmagan shartnomalar va boshqa bitimlardan vujudga keladi.(FK ning 8-m,2-q; 234-m). Ashyoviy huquq bilan bog'liq munosabatga oid masala boshqacha hal etilgan. Ularning ro'yxati faqat qonunda belgilab qo'yilgan. Taraflar o'zaro kelishib shartnoma va bir tomonlama bitimda (qonunda ko'zda tutilmagan) qandaydir ashyoviy huquq turini belgilashga haqli emaslar.

To'rtinchidan, barcha ashyoviy huquqlar shaxslarning ashyoga nisbatan bo'lgan munosabatlarini tartibga solgani holda tegishli ashyoni boshqalarning ko'magisiz o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadi. Majburiyat huquqida esa, vakolatli shaxs o'z ehtiyojini qondirishi uchun ma'lum shaxslarning yordamidan foydalanadi. Masalan, mol-mulkni topshirish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, va boshqalarni majburiyat ostidagi shaxs (qarzdor) boshqa shaxs kreditor foydasiga bajarishni amalga oshiradi. Shuning uchun

ashyoviy huquq obyekti faqat ashyolar, shu bilan birga xususiy belgisi ashyolar hisoblanadi. Bu mol-mulkning nobud bo'lishi bilan birga unga bo'lgan ashyoviy huquqlar ham bekor bo'ladi. Majburiyat huquqida esa uning obyekti majburiyatli shaxs(qarzdor)ning harakati hisoblanadi. Shuning bilan birga qarzdorning majburiyati huquqiy vorislik orqali boshqa shaxsga o'tishi hamda o'tkazilishi ham mumkin.

Beshinchidan, ashyoviy huquqlarning asosiy xususiyati yana shundaki, bu huquq mulk bilan birga ergashib yuradi. Fk 165-moddasi 3-qismiga ko'ra, mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi, agar qonun hujjatlarida o'zga tartib nazarda tutilga bo'lmasa, bu mol-mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarning bekor bo'lishi uchun asos bo'lmaydi. Masalan: oldi-sotdi shartnomasi natijasida mulkka nisbatan mulk huquqini boshqa shaxsga o'tishi, sotib oluvchining mulkni garovga qo'yish huquqini bekor qilmaydi.

Shunday qilib, ashyoviy huquq – mulkka nisbatan egalik munosabatlarini amalga oshirishning huquqiy shakllaridan biri sifatida talqin etiladi. Ashyoviy huquq uning egasiga ashyo ustida xukmronlik qilish imkonini beradigan huquq sifatida baholanadi.

Mulkiy huquqning mustaqil guruhi sifatida ashyoviy huquq barcha huquq tizimlarida uchraydi. Rim huquqi ham bir qator ashyoviy huquqlarni o'zida mustahkamlaydi². Mulk huquqi bilan birga, servitut huquqi, garov huquqi va boshqalar ashyoviy huquq sifatida e'tirof etiladi.

Shunga ahamiyat bermoq kerakki, mulk huquqi bilan ashyoviy huquq bir-biridan qanday farqlanadi? Aslida mulk huquqi ham ashyoviy huquqning bir turi sifatida maydonga chiqadi. Ma'lumki mulk huquqi - mulkni egalash, undan foydalanish va uni tasarruf etish kabi vakolatlarni qamrab oladi. Mulk huquqidan tashqari boshqa qolgan biron-bir ashyoviy huquq bunday to'liq vakolatga ega emas.

Ashyoviy huquqlar guruhini tashkil etuvchi bir qator huquqlar o'zining umumiy belgilariga ega. Ularning barchasi mutloq huquq hisoblanadi. Ashyoviy

² Новицкий И.Б. Основы римского гражданского права. М., 1956. С 69.

huquq egasi faol hisoblanib, u o'ziga tegishli huquqlarni boshqa shaxslarning ko'magisiz mustaqil amalga oshirishi mumkin. Majburiyatli shaxslar doirasi cheklanmagan bo'lib, bunday majburiyat passiv majburiyat hisoblanadi. Ya'ni ashyoviy huquqni amalga oshirishga halaqit bermasligi kerak. Ashyoviy huquqlarni himoya qilishda alohida vositalardan foydalaniladi. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar har qanday shaxsdan FKning 165-m, 4-q, FKning 228-232 moddalariga muvofiq himoya qilinadi. FK 228-moddasiga muvofiq, mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli(vindikasiya). FKning 231-moddasiga muvofiq mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzilish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham bartaraf etishni talab qilishi mumkin(Negator da'vo).

1.2. Ashyoviy huquqiy munosabatlarning obyekti sifatida ashyolar.

Fuqarolik kodeksining 81-moddasiga ko'ra, fuqarolik huquqining obyektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtirolar, sanoat namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi. Bu yerda ashyolar - ashyoviy huquqiy munosabatlarni vujudga kelishida eng faol obyekt sifatida qaraladi. Avvalo ashyo tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, u arabcha – buyumlar, narsalar degan ma'noni bildiradi. Bunda ashyo birinchidan, tirikchilik va ro'zg'orda ishlatiladigan, kerak bo'ladigan har qanday narsa; ikkinchidan, ishlab chiqarilgan narsa, mahsulot ma'nolarini beradi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida ashyolar - moddiy obyekt hisoblanib, ular orqali fuqarolik huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Ashyolar - ashyoviy huquqiy munosabatlar obyekti va majburiyatga oid huquqiy munosabatlar predmeti hisoblanadi. Ashyolarning eng muhim xususiyati ularning muomala qobiliyatidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksariyat obyektlar hech qanday cheklavlarsiz muomalada bo'ladilar. FKning 1 – moddasi 4 – qismiga ko'ra, xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, tabiatni va madaniy boyliklarni muhofaza qilish uchun zarur bo'lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo'lishini cheklash qonun hujjatlariga muvofiq joriy etilishi mumkin. Ushbu norma mazmunidan kelib chiqib to'xtaladigan bo'lsak, mavjud asoslarga tayanib ashyolarning ham muomalada bo'lishi cheklab qo'yilishi mumkin.

Fuqarolik muomalasida ashyolarning erkin ishtiroki darajasiga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Muomaladan chiqarilgan ashyolar (qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatiladi). Masalan, o'q-otar qurollar, samaliyotlar, harbiy texnikalar
2. Muomalada bo'lishi cheklangan ashyolar. (maxsus ro'xsatnoma asosida). Masalan, yosh bollarga faqat ro'xsatnoma asosida beriladigan fenobarbidol tablitskalari, ov qurollari va x.k.

3. Erkin muomalada bo'lishi e'tirof etilgan ashyolar. Muomalada bo'lishi qonun hujjatlari bilan cheklanmagan barcha ashyolar.

Tarixiy nuqtai nazardan baholaydigan bo'lsak, qadimgi Rim huquqida ham mol-mulklar bir qancha turlarga ajratilgan.⁶ Ularning eng katta tasnifi bu ashyolarning shaxslar huquqiga obyekt bo'lishi nuqtai nazaridan ajratilishidir. Unga ko'ra ashyolar ikki shaklga:

A) Res Extra Patrimonim - muomaladan chiqarilgan ashyolar

B) Res In Patrimonio – muomaladan chiqarilmagan ashyolarga ajratilgan.

Res Extra Patrimonim'ga kirgan ashyolar ustidan shaxsiy huquqlar o'rnatilmagan va bular olish-sotish munosabatlarining obyekti bo'la olmagan. Agar bunday ashyolar ustida ma'lum bir bitimlar amalga oshirilgan taqdirda, ular haqiqiy deb tan olinmagan. Hyech kimni nazoratida bo'lmagan egasiz ashyolar ham (res nullius) ham res extra patrimonim'ga tegishli ekanligi qayd etilgan. M: uy hayvonlari. Ularga nisbatan egalik huquqi qo'lga kiritilgan taqdirdagina ular fuqarolik muomalasiga kiritilgan. Res extra patrimonim'ga tegishli bo'lgan ashyolar yo ilohiy huquqqa (res divini iuris) yoki dunyoviy huquqqa (res humani iuris) tegishli bo'lgan. Res divini iuris'ga kiritilgan ashyolar nisbatan shaxsiy huquqlar e'tirof etilmaganligi uchun, bu ashyolar huquqiy munosabat obyekti ham bo'la olmasdi. Res humani iuris ham ommaviy hamda xususiy mol-mulklarni o'z ichiga olardi. Dunyoviy huquqqa tegishli bo'lgan bu mol-mulklar uch guruhga ajratilgan.

1) Res rubbicae (ommaviy mulklar). Bu mol-mulklar barchaning mol-mulkiga qaratilganligi sababli egalik huquqi davlatga tegishli bo'lgan. Shuning uchun bu mulklarga umumiy huquq normalari tadbiq etilgan. Foydalanishdagi umumiy yo'llar va maydonlar, suv yo'llari, jamiyat tomonidan foydalanishga yo'naltirilganligi sababli, har kim bu mollardan belgilangan tartibda foydalangan. Ma'lum bir kishilarning bu mulklardan foydalanishga to'sqinlik qiladigan holatlarni bartaraf qilish uchun actio iniurarum yoki interdietum da'vo institutlarida foydalanilgan.

⁶ Belgin Erdog'mush. Roma eshya hukuku. – Istanbul. 2006. 4-6 s.

2) Res communes omnium (umumiy kommunal) mulklar. Bularga havo, daryo va yomg'ir suvlari, dengiz va qoyalar kirgan. Ushbu mulklar davlatga ham, xususiy mulkka ham tegishli bo'lmagan. Har kim bu yerlardan erkin ravishda foydalangan. Shuning uchun dengiz qirg'oqlaridan topilgan ashyolar uni topgan kishining mulki hisoblangan. Davlat tomonidan ma'lum bir qoidalar o'rnatilguncha, dengizdan tutilgan baliqlarga nisbatan egalik uni tutgan shaxsga tegishli bo'lgan.

3) Res universitatis (jamoaga tegishli mulklar) teatr, sport maydonlari kabi jamiyatning foydalanishi uchun ochiq bo'lgan yerlar kirgan. Bu yerlardan foydalanishga qarshilik ko'rsatilgan hollarda action iniuratum da'volari qo'zg'atilgan.

Hozirgi kunda, ashyoviy huquq egalarining mulkdan foydalanishdagi huquqlari qonun bilan yoki mulkdor tomonidan belgilab beriladi. Qonun tomonidan ruxsat etilgan cheklangan ashyoviy huquqlar mulk huquqidan kelib chiqib shakllanadi. Mulkdor o'zining mulkini boshqa shaxsga foydalanishga topshirgan taqdirda ham mulkning ustida uning mulk huquqi saqlanib qoladi. Agar mulk huquqi bilan boshqa ashyoviy huquqni taqqoslaganda mulkka nisbatan tegishli huquqning hajmi bilan keskin farqlanadi. Shuning uchun qonun mulkdor bo'lmagan shaxslarga tegishli ashyoviy huquqlarni «Mulkdor bo'lmagan shaxslarning ashyoviy huquqlari» deb nomlaydi. Bizningcha mulk huquqidan tashqari bo'lgan boshqa ashyoviy huquqlarni bunday nomlash unchalik ham to'g'ri emas. Boshqa ashyoviy huquqlar mulk huquqidan faqat ashyoga tegishli bo'lgan huquqlarning cheklanganligi bilan farq qiladi. Shunday ekan qonun normalarining bir marta o'qishda uning mazmun - mohiyatini aniqlash uchun qolgan ashyoviy huquqlarni «Cheklangan ashyoviy huquqlar» deb nomlash maqsadga muvofiq bo'lardi. Cheklangan ashyoviy huquqlar ham mutlaq huquq hisoblanadi. Ashyoviy huquq egasi o'ziga tegishli mulkni boshqarishdagi barcha vakolatlar unga tegishlidir

Harakatdagi fuqarolik qonunchiligida ashyolarni quyidagicha klassifikatsiyalash belgilab qo'yilgan.

1. Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar. Alohida, faqat o'zigagina xos, uni bir xil ashyolar orasidan ajratib turadigan va shu tariqa hususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar hisoblanadi. Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyolar jumlasiga noyob, ya'ni o'zi bir dona bo'lgan ashyolar, shuningdek muayyan usul bilan ajratib qo'yilgan ashyolar (muhr bosish, alohida belgilar tushirish, nomer, raqam berish va shu kabilar) kiradi. Masalan, «Farhod» firmasining muhri, Amir Temur ko'chasi 18- uy. Bir turdagi hamma ashyolarga xos alomatlariga ega bo'lgan hamda soni, og'irligi, o'lchovi va shu kabilar bilan belgilanadigan ashyolar turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar hisoblanadi. M: 10 xalta guruch, uch kub taxta, 10 ta qalam va b.

2. Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashyolar. Bo'lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalarini o'zida saqlab qoladigan va shu bilan birga o'zining xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini yo'qotmaydigan ashyo bo'linadigan ashyo hisoblanadi. M: bir qop kartoshka, ma'lum miqdordagi yog', uy-joy. Bo'lish natijasida qismlari dastlabki ashyoning xossalarini yo'qotadigan, uning xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini o'zgartiradigan ashyo bo'linmaydigan ashyo hisoblanadi. M: stol, stul, mashina, stol lampasi.

3. Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar. Bir karra foydalanish natijasida yo'qolib ketadigan yoki dastlabki holatda mavjud bo'lmay qoladigan ashyolar (xom ashyo, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari va shu kabilar) iste'mol qilinadigan ashyolar hisoblanadi. Qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari) iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi.

4. Asosiy va mansub ashyolar. Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyoga bog'liq mustaqil ashyo asosiy ashyo hisoblanadi. Asosiy ashyoga xizmat qilishi kerak bo'lgan va u bilan umumiy xo'jalik vazifasi orqali bog'liq ashyo mansub ashyo hisoblanadi.

Bundan tashqari fuqarolik huquqida ashyoning tarkibiy qismi degan tushuncha ham qo'llaniladi. Bu o'z navbatida mansub ashyo tushunchasidan farq

qiladi. Professor. I.Zokirovning ta’kidlashicha mansub ashyo bilan ashyoning tarkibiy qismi masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ashyodan uni zararlantirmay va qiymatini jiddiy ravishda tushirmay ajratilishi mumkin bo’lmagan har narsa ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi.⁷ Agar masalan, velosipedning nasosi mansub ashyo bo’lsa, avtomashinaning radiatori ashyoning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida ashyolarning murakkab turi ham uchraydi. Agar turli xil ashyolar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo’yicha foydalanishga imkoniyat beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi. Masalan, mulkiy kompleks sifatida korxona, uy-joylar. Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada boshqacha tartib belgilab qo’yilgan bo’lmasa, uning barcha tarkibiy qismlariga taalluqli bo’ladi. Shu bilan birga, ashyolarning sodda yoki oddiy ko’rinishda ham mavjud bo’lishini e’tirof etish mumkin. Oddiy ashyolar huquqiy jihatdan uni butun holda tashkil qilgan omillarning yig’indisi hisoblanadi. Masalan: choynak, piyola, uy – ro’zg’or idishlari. Bu ashyolar aniq bir moddadan tashkil topgan. Bu ashyolarning parchalanishi huquqiy jihatdan o’zining mazmunini yo’qotadi.

Hosil va daromadlar ham ashyo sifatida e’tirof etiladi. Hosil – ashyolarning organik rivojlanishi natijalaridir. Hosilni tabiiy va huquqiy hosil sifatida ikkiga ajratish mumkin. Tabiiy hosillar daraxtlarning mevalari, hayvonlarning suti, juni va bolalarini kiritish mumkin. Huquqiy hosil – bu huquqiy munosabat natijasida qo’lga kiritilgan foyda hisoblanadi. Masalan, ijara shartnomasi natijasida olingan ijara haqi (o’simliklar, hayvonlar). Daromad - fuqarolik muomalasida ashyolarning ishtiroki etishi orqali qo’lga kiritilgan natijalar hisoblanadi. Ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun va shartnomada boshqacha tartib belgilab qo’yilgan bo’lmasa, ashyo egasiga tegishlidir (FK 92-modda).

⁷Zokirov I. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. T.: Adolat. 1996. 85-b.

1.3. Ashyoviy huquq turlari

Ashyoviy huquqlar o'zining huquqiy tabiati, undan foydalanadigan subyektlar doirasiga ko'ra bir qancha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 165-moddasiga ko'ra quyidagilar ashyoviy huquqlar sifatida e'tirof etiladi.

- Mulk huquqi
- Xo'jalik yuritish huquqi
- Operativ boshqarish huquqi
- Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi.
- Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi.
- Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi.
- Servitut huquqi.

Bu ro'yxatni tugallangan deb hisoblamaslik kerak. FKning 165-moddasi mazmuniga tayanib garov huquqi, oila a'zolarining uy-joydan foydalanish huquqi, ijara huquqlarini ham ashyoviy huquq turi sifatida qayd etish mumkin. Shu bilan birga, muassasaga daromad keltiriladigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan bo'lsa, bunday faoliyatdan olingan daromadlarni tasarruf qilish huquqlari ashyoviy huquq hisoblanadi.⁸

Ashyoviy huquqlar orasida alohida o'rin tutadigan mulk huquqiga tegishli bo'lgan xususiyatlar haqida keyingi paragraflarda to'xtalib o'tamiz.

Yuqorida to'xtalib o'tganimiz ashyoviy huquq turlarining barchasining mazmuni bu fuqarolik muomalasida mulkiy munosabatlarni keng doirada amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan. Jumladan, **xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi** ashyoviy huquqning ikki ko'rinishi bo'lib, faqat ayrim turdagi yuridik shaxslarga tegishlidir. Bunda mulkdor o'zida mulk huquqini saqlab qolgani holda, mulkni mustaqil boshqarishni tashkil qilish uchun fuqarolik huquqining

⁸Professor H.Rahmonqulov ashyoviy huquq mutlaq huquq hisoblangani holda, har bir rivojlangan davlat fuqarolik qonunchiligining ajralmas tarkibiy qismidan iborat, degan fikrni bildiradi. /O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif sharhlar. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997 30-b.

yangi subyektiga o'tkazadi. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqining vujudga kelishi xususida fanda bir qator fikrlar o'rta tashlangan. Jumladan, rus olimlaridan professor Suxanovning ta'kidlashicha, davlat mulkdor sifatida o'ziga tegishli bo'lgan mulklarni to'g'ridan-to'g'ri o'zi bevosita xo'jalik yuritishga kiritish imkoniyatiga ega emas. Biroq u bu mulklar ustidan ham o'z vakolatlarini yo'qotishni istamaydi. Shuning uchun davlat ushbu mulklarni fuqarolik muomalasiga kiritish maqsadida korxonalar va muassasalar tashkil qilib, ularga cheklangan ashyoviy huquqlarni beradi.⁹

Xo'jalik yuritish huquqining subyekti sifatida unitar korxona e'tirof etiladi. (FK. 176-modda). O'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi. Xo'jalik yuritish huquqining obyektini mulkiy kompleks sifatida korxonaning o'zi, hamda shu kompleks tarkibiga kiruvchi korxona faoliyati uchun mo'ljallangan har qanday mol-mulk: yer uchastkalari, binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, inventar, xom ashyo, mahsulot, talab qilish huquqi, qarzlar, shuningdek, korxonaning mahsuloti, ishlari va xizmatlarini aks ettiruvchi xususiy alomatlari(firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari) hamda xo'jalik yuritish huquqining obyektini tarkibiga kiruvchi turli mulk fondlari tashkil etadi. Xo'jalik yuritish huquqi asosida ixtiyorida mol-mulk bo'lgan huquqlar va boshqa mutloq huquqlarni ham uning obyektini sifatida qarash mumkin. kiradi. Unitar korxona bu mol-mulkka qonunchilikda belgilangan doirada egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Xo'jalik yuritish huquqini mulkni tasarruf qilishda ma'lum cheklashlarga yo'l qo'yiladi. Shunga ahamiyat berish kerakki, ayni vaqtda mulk ustida uning mulkdorining huquqi saqlanib turadi. Shu sababli unitar korxona xo'jalik yuritish huquqi asosida o'ziga qarashli bo'lgan ko'chmas mulkni mulkdorning roziligisiz sotishga, ijaraga berishga, garovga qo'yishga, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.(FK 177-m, 3-q). Korxonaga qarashli boshqa mol-mulkni u mustaqil tasarruf qila oladi.

⁹ Маттеи У., Суханов Е.А. Основные положения права собственности. – М.: Юристъ. 1999. 320 с.

Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan korxona xodimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas. Unitar korxonaning mol-mulki unga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir. Shunga e'tibor qaratish lozimki, xo'jalik yuritish huquqini amalga oshirish uchun unitar korxona tashkil qilinadi. Demak, unitar korxona ashyoviy huquqning xo'jalik yuritish huquqi asosida faoliyat olib boradi. Lekin shu bilan birga ashyoviy huquqning yana bir turi hisoblangan operativ boshqarish huquqiga asoslangan davlat unitar korxonalari ham tashkil qilinishi mumkin. FKning 72-moddasi 1-qismiga ko'ra, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin. Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko'rsatishi kerak.

Xo'jalik yuritishda bo'lgan mol-mulkning egasi qonunga muvofiq korxonani tashkil etish, uning faoliyat sohasini va maqsadlarini aniqlash, uni qayta tashkil etish va tugatish masalasini hal qiladi, korxona direktorini (rahbarini) tayinlaydi. Korxonaga qarshi mol-mulkdan belgilangan maqsadlarga foydalanishi va uning saqlanishini nazorat qiladi. Shu bilan birga mulkdor korxonaning xo'jalik yuritishda bo'lgan mol-mulkini ishlatishdan kelgan foydaning bir qismini olish huquqiga ega.(FK 177, 1-q, 2-q).

Unitar korxonaga xo'jalik yuritish, muassasaga operativ boshqarish huquqi mulkdorning qaroriga asosan mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Agar qonun hujatlarida yoki mulkdorning qarori bilan boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, qonun mazmuni bo'yicha korxonani xo'jalik yuritish uchun topshirish shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqarishda bo'lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingan hosil, mahsulot va daromadlar, shuningdek unitar korxona yoki muassasa shartnoma bo'yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulk, korxona yoki muassasaning xo'jalik yuritishiga yoki operativ boshqarishiga o'tadi.

Operativ boshqarish huquqining subyekti sifatida davlat korxonasi, shuningdek muassasasi o'zlariga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradilar. Davlat korxonasi davlat mulki asosida tashkil qilinadiyu muassasa ommaviy va xususiy mulk asoslariga tayanib tashkil qilinishi mumkin.

Operativ boshqarish huquqining obyektlari orasida pul mablag'lari asosiy mazmun egallaydi. Bu pul mablag'lari davlat va munisipal muassasalarga tegishli byudjetdan ajratiladi. Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan tashkil qilingan muassasalarga—uning muassislari tomonidan ajratilgan mablag'lar kiradi. Pul mablag'lari tegishli fondlarda to'planadi(yig'iladi), ularning huquqiy holati operativ boshqarish subyektlarining o'zlari tomonidan tasdiqlangan fond haqidagi nizom, maxsus normativ aktlar bilan belgilanadi.

Davlat korxonasining daromadlarini taqsimlash tartibi uning mulkdori tomonidan (yakka o'zi) belgilanadi. Qonun operativ boshqarish huquqi subyektlariga biriktirib qo'yilgan mulkni taasarruf qilishda aniq chegarani belgilab qo'ygan. Jumladan, davlat korxonasi o'zi ishlab chiqaradigan mahsulotni, agar qonun hujjatlarida o'zgacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, o'zi mustaqil taasarruf etadi. (FK 179-m,2-q). Boshqa barcha hollarda davlat korxonasi o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkni uning mulkdorning roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda taasarruf etishga haqli.

Muassasa esa o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkni va smeta bo'yicha unga ajratilgan mablag'larga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o'zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas. Maboda, ta'sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berilgan bo'lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk muasssaning hisobidan mustaqil tasarrufiga o'tadi va alohida balansda hisobga olindi.

Bu holat muassasalarning xo'jalik yuritish huquqining subyekti sifatida e'tirof etishiga sabab bo'ladi.(180, 2-q).

Agar pul mablag'lari muassasani moliyalashtirish uchun ajratilgan bo'lsa, u mulkdor tomonidan tasdiqlagan qat'iy tegishli smeta asosida taasarruf qilishi kerak.

Mol-mulkni xo'jalik usulida yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi mulkdorning qarori bilan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarda bekor qilinadi (F.K. 181-modda, 3-q)

Xulosa qiladigan bo'lsak, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi ashyoviy huquqning ko'rinishi sifatida mulkdorning huquqlariga bog'liq holda shakllanadi. Bu holat ularning yuridik xususiyatini belgilab beradi. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqining subyekti faqat yuridik shaxslar bo'lishi mumkin. Bunda haq qanday yuridik shaxslar emas, balkida maxsus tashkiliy – huquqiy shaklga ega bo'lgan korxonalar va muassasalar nazarda tutilmog'i lozim. Xo'jalik yuritish huquqining subyekti sifatida faqat davlat va munisipal unitar korxonalar e'tirof etiladi. Shuni e'tiborda tutish kerakki, mulkdor tomonidan xo'jalik yuritishga berilgan korxonaning balansiga o'tkazilgan mol-mulklarga nisbatan o'z vakolatlarini amalga oshira olmaydi. Korxona o'z majburiyatlari yuzasidan mavjud mol-mulki bilan javob beradi hamda mulkdorning majburiyatlari yuzasidan ma'lum bir javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

Xo'jalik yuritish asosida unitar korxonani tashkil qilgan mulkdor muassis sifatida quyidagi huquqlarni amalga oshirishga haqli hisoblanadi:

- korxonanning maqsad va faoliyat vazifalarini belgilab berishi, ustavini tasdiqlashi, direktorni tayinlashi;
- korxonani qaytadan tashkil qilishi yoki tugatishi (bunday hollarda kreditorlarning huquq va manfaatlarini e'tiborga olinmog'i lozim).
- korxona tasarrufidagi mol-mulklarning maqsadli foydalanishini nazorat qilishi;
- korxona faoliyatidan olingan foydadan ma'lum bir qismini olishi;

Operativ boshqarish huquqining subyektlari davlat korxonalari, mulkdor tomonidan moliyalanib turiladigan muassasalar hisoblanadi. Operativ boshqarish huquqi asosan tijoratchi bo'lmagan ya'ni foyda olishni nazarda tutmagan tashkilotlar uchun ular faoliyatini boshqarib turishda keng qo'llaniladi.

Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi. meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi

Yer umum milliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan iborat.

Yer uchastkasi – yer fondining qayd etilgan chegara, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimiga hamda yer usastkasiga bo'lgan huquqlarning davlat yer kadastrida va davlat ro'yxatiga olish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan qismidir. Yer uchastkasi - yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimiga hamda davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo'lgan qismidir. Yer uchastkasining chegarasi planlarda (chizmalarda) qayd etiladi va naturada (joyning o'zida) belgilanadi. Yer uchastkasining maydoni naturada (joyning o'zida) chegara belgilanganidan keyin aniqlanadi.

Yer uchastkasi bo'linadigan va bo'linmaydigan bo'lishi mumkin. O'zining asosiy foydalanish maqsadini o'zgartirmagan va yong'inga qarshi, sanitariya, ekologiyaga oid, shaharsozlik hamda boshqa majburiy normalar va qoidalarni buzmaganda qismlarga bo'lish mumkin bo'lgan va bu ish amalga oshirilganidan keyin hosil bo'lgan qismlarning har biri mustaqil yer uchastkasini tashkil etishi mumkin bo'lgan yer uchastkasi bo'linadigan yer uchastkasi hisoblanadi. Foydalanish maqsadiga ko'ra mustaqil yer uchastkalariga bo'linishi mumkin bo'lmagan yer uchastkasi bo'linmaydigan yer uchastkasi hisoblanadi.

Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanishga oid ashyoviy huquq, uning egasiga muddatsiz respublika yoki munisipal mulkka tegishli yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish imkonini beradi. Yer uchastkalari doimiy foydalanish uchun tekinga beriladi. Yer uchastkalaridan doimiy foydalanish huquqi yer uchastkasining tasnifi va plani ishlab chiqilgan, joyi belgilangan, yer uchastkasini berish haqida shartnoma tuzilgan va u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Doimiy foydalanish huquqining subyektlari fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadi. Jumladan: yer uchastkalar fuqarolarga dehqon(fermer) xo'jaliklar tashkil qilish maqsadida, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar tashkil qilish maqsadida va boshqa xo'jalik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida berilishi mumkin.,

Yer kodekisning 20-moddasiga ko'ra yer uchastkalaridan doimiy egalik qilish va foydalanish uchun

O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga;

sanoat, transport hamda boshqa noqishloq xo'jalik korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga;

chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga;

chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi.

Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va foydalanish huquqi Yer uchastkasiga doimiy egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlanadi.

Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqining mohiyati shundan iboratki, uning egasi yer uchastkasidan qonun hujjatlarida va boshqa huquqiy aktlarda belgilangan tartibda yoki yer uchastkasini berish haqidagi aktga muvofiq foydalanishi lozim. Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilab qo'yilga bo'lmasa, yer uchastkasidan berilgan maqsadiga muvofiq foydalanish kerak.

Shunga e'tibor qaratish lozimki, ayrim hollarda yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqini boshqa shaxslarga ham o'tishi mumkin. Jumladan, korxona, bino, inshoot yoki boshqa ko'chmas mol-mulkka nisbatan mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi yoki ularni operativ boshqarish huquqi

boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, ana shu obyektlar bilan birgalikda mazkur obyektlar joylashgan hamda ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi ham o'tadi. Uy-joyga, chorbog'ga bo'lgan mulk huquqi (sotib olish, hadya yoki meros bo'yicha olish va boshqa hollarda) jismoniy shaxsga o'tgan taqdirda, ana shu imoratlarga mulk huquqi bilan birgalikda mazkur imoratlar joylashgan barcha yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqlari ham o'tadi. Korxona, bino, inshoot yoki boshqa ko'chmas mol-mulk joylashgan yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqining boshqa shaxsga o'tishi mulkdorlarning yoki ular vakolat bergan organlar hamda shaxslarning tegishincha shartnomalari, qarorlari asosida tuman, shahar yer-kadastr daftari yerning yangi egasi yoki yerdan yangi foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish va ularga yer uchastkasiga doimiy egalik qilish, undan doimiy foydalanish yoki yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjatlarini topshirish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Korxonaning, binoning, inshootning yoki boshqa ko'chmas mol-mulkning bir qismiga nisbatan mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi, ularni operativ boshqarish huquqi yangi mulkdorga yoki boshqa ashyoviy huquqlarning egasiga o'tgan taqdirda, unga yer uchastkasining korxonaning, binoning, inshootning yoki boshqa ko'chmas mol-mulkning ulushiga mutanosib bo'lgan qismiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi ham o'tadi, yer uchastkasini bunday ajratish mumkin bo'lmagan hollarda, shuningdek ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan nizolashilgan hollarda yer uchastkasining bo'linishi davlat kadastri va yer tuzish xizmati organlari tomonidan amalga oshirilib, tuman, shahar hokimining qarori bilan tasdiqlanadi va shundan keyin yer uchastkasiga egalik qilish va undan doimiy foydalanish huquqi davlat ro'yxatiga olinib, tegishli davlat hujjatlari beriladi.

Yer uchastkalarini egalik qilish, foydalanish uchun, ijaraga va mulk qilib berish (realizasiya qilish) yer ajratish tariqasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi,

viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi. Egalikdagi, foydalanishdagi, ijaradagi va mulk qilib berilgan yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish faqat shu uchastka belgilangan tartibda olib qo'yilganidan (sotib olinganidan) keyin amalga oshiriladi. Sanoat korxonalari, temir yo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr o'tkazish liniyalari, magistral truboprovodlar qurish uchun, shuningdek qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar yoxud qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari beriladi O'rmon fondiga qarashli yerlardan mazkur maqsadlar uchun yer uchastkalari berish asosan o'rmon bilan qoplanmagan maydonlar yoki buta va arzonbaho dov-daraxtlar bilan qoplangan maydonlar hisobidan amalga oshiriladi. Berilgan yer uchastkasining chegaralarini tegishli yer tuzish xizmati naturada (joyning o'zida) belgilaguniga va yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar mazkur yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlanadi.

Yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqi 2 asosga ko'ra bekor bo'ladi:

- 1) Qonunda to'g'ridan- to'g'ri belgilab qo'yilgan hollarda
- 2) Taraflar imzolagan shartnomaga muvofiq.

Bundan tashqari yer uchastkalari davlat va munisipal manfaatlar uchun sotib olinishi mumkin.

Shu bilan birga yer uchastkasidan foydalanish huquqi majburiy tarzda bekor qilinishi ham mumkin: yer uchastkasi maqsadga muvofiq foydalanilmagan bo'lsa; yerlarni yaxshilashga oid majburiy choralar ko'rilmagan bo'lsa; qonunda ko'zda tutilgan ma'lum muddat davomida foydalanilmagan bo'lsa; yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda, bu qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi 3 yil mobayida normativdan(kadastr bahosiga ko'ra) past bo'lishida ifodalanganda; yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, unin kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda h.k.

Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi

Bu ko'rinishdagi ashyoviy huquq uning egasiga meros qilib qoldirilgan yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish imkonini beradi. Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqining subyekti faqat fuqarolar bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, dehqon xo'jaligi yuritish uchun, yakka tartibda uy-joy qurish va uy joyni obodonlashtirish uchun, jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yer uchastkasi olish huquqiga egadirlar. Fuqarolarning yer uchastkalariga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi shu huquqni beruvchi davlat hujjati bildan tasdiqlanadi.

Meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqining bekor bo'lishi, yuqorida ta'qidlangan, yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqini bekor qiluvchi asoslar bu ashyoviy huquqqa ham taaluqlidir. Bundan tashqari meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqini beruvchi order kim oshdi savdosi asosida sotib olinganidan keyin yer uchastkasidan ikki yil mobaynida foydalanilmaganida, yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi garovda bo'lgan taqdirda esa, -garov shartnomasi muddati mobaynida foydalanilmaganida bunday ashyoviy huquqning bekor qilinishiga olib keladi.

Servitut huquqi

O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut) – qo'shni bo'lgan bir yoki bir necha yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqidir.

Servitut quyidagi maqsadlarda belgilanishi mumkin: o'zganing yer uchastkasi orqali piyoda yoki transportda o'tish; o'zganing yer uchastkasidan drenaj (zovurlar, yoki quvurlar sistemasi) ishlari o'tkazish; o'zganing yer uchastkasidani elektr uzatish, aloqa liniyalari va truboprovodlar, irrigasiya, muhandislik va boshqa

liniyalar hamda tarmoqlar o'tkazish va ulardan foydalanish; o'zganing yer uchastkasidan ekinzor va mollarni sug'orish uchun suv olish, mollarni o'zganing yer uchastkasi orqali haydab utish; o'zganing yer uchastkasidan qidiruv, tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanish; o'zganing yer uchastkasida ihota daraxtlari ekin va tabiatni muhofaza qilishga taaluqli boshqa obe'ktlar barpo etish va h.k.

Servitut uni belgilashni talab qilgan shaxslar bilan o'zga yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdori o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, sudning hal qiluv qaroriga binoan belgilanadi. Yer uchastkasida servitut belgilanishi yer uchastkasi egasining ushbu uchastkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlaridan mahrum etmaydi. Cyervitut to'g'risidagi kelishuv davlat ro'yxatiga olinishi lozim va u yer uchastkasi boshqa shaxsga o'tgan vaqtida saqlanib qoladi.

Servitut oid huquqiy munosabatlarning subyektlari fuqarolar va yuridik shaxslar bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligida servitut ikkiga ajraladi.

Ommaviy servitut. Barcha fuqarolarning manfaatini ko'zlab qonun hujjatlari bilan o'rnatiladi.

Xususiy servitut – qonun normalariga zid bo'lmagan holda manfaatdor taraf va mulkdor o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yoki sud tomonidan o'rnatiladi. Servitut to'g'risidagi kelishuv uni belgilashga sabab bo'lgan asoslar barham topsa, bekor qilinishi mumkin.

II-BOB. MULK HUQUQI

2.1. Mulk huquqi tushunchasi

Mulk insonlarning harakatlari natijasida ishlab chiqarilgan, yaratgan, qo'lga kiritgan, tabiatdan o'zlashtirgan narsalardir. Mulk iqtisodiy tushuncha bo'lib, u orqali o'rnatiladigan iqtisodiy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi va shu orqali mulk huquqi formasiga ega bo'ladi. Yuridik adabiyotlarda¹⁰ "mulk huquqi" termini ikki ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi, obyektiv ma'nodagi mulk huquqi - bu fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan jami ashyolarni o'zlashtirish, egallash, foydalanish va tasarruf qilishiga oid shaxslar harakatlari imkoniyatlarini belgilab beruvchi qonun hujjatlarida qayd etilgan huquq normalaridir. Ushbu normalarni biz, «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunda, Fuqarolik kodeksida va boshqa me'yoriy hujjatlarda uchratishimiz mumkin. Bu harakatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi mulk huquqi institutini shakllantiradi. Mulk huquqi institutining huquqiy asosini konstitusion normalar tashkil etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 36-moddacida «har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli», 53-moddasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin», 54-moddasida «mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan

¹⁰ Гражданское право. Часть первая. Юристь. Москва, 1997. с. 229

manfaatlarini buzmasligi shart»¹¹ deyilgan konstitusion normalarning mustahkamlanganligining guvohi bo'lamiz.

O'z navbatida mulk huquqi instituti xususiy huquqning markaziy instituti hisoblanadi. Uning normalari oila huquqi, meros huquqi, majburiyat huquqi sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolik huquqida mulk huquqi instituti majburiyat huquqi normalari bilan o'zaro chambarchas bog'langan.

Mulkni egallash, foydalanish huquqi statik(turg'un) huquqiy munosabatlarni shakllantirsa, ulardan farqli mulkni tasarruf qilish huquqi majburiyatga oid munosabatlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Masalan: mulkni sotish, hadya qilish va boshqa usulda topshirish. Shu sababli taassaruf qilish huquqini amalga oshirish dinamik(harakat) munosabat sifatida qaraladi. Ko'p hollarda u mulkka nisbatan mulkdorni o'zgartirib boradi.

Subyektiv ma'noda mulk huquqini - bu shaxslar uchun qonun orqali ularning o'z hohishi bo'yicha mulkni egallash, foydalanish va tasarruf qilish imkoniyatining huquqiy jihatdan ta'minlaganligi bilan baholash mumkin. Fuqarolar qonunda nazarda tutilgan tartibda o'z imkoniyatlariga qarab mol-mulklarni o'zlashtiradi, egallaydi, foydalanadi va tasarruf qiladi. Bunday imkoniyatlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Mulkni egallash, foydalanish, taassaruf qilish huquqining boshqa ashyoviy huquq egalaridan farqi, qonunda belgilangan tartibda, yuridik faktlar asosida bir vaqtning o'zida mulkdorda uchala huquq vujudga keladi. Masalan: xususiylashtirish, oldi-sotdi shartnomasi, Yangi ashyolarni yaratish va boshqalar.

Subyektiv mulk huquqini xarakterlaydigan uch elementdan tashqari, qonunchilik yana quyidagilarni: bunda shaxslarga tanilgan mulk huquqini amalga oshirmasligi, ya'ni ularning harakatsizligi natijasida ularga tegishli bo'lgan mulk huquqini bekor qilish to'g'risida bir qator sanksiyalarni ko'zda tutadi: bunday sanksiyalarga masalan, qarovsiz hayvonga nisbatan u yo'qolgandan boshlab 6 oy o'tsa va egasi izlamagan bo'lsa mulk huquqi bekor bo'ladi: da'vo qilish muddatining o'tishi bilan mulk huquqi bekor bo'ladi.

¹¹O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston. 2010 yil.

Obyektiv ma'nodagi mulk huquqini subyektiv ma'nodagi mulk huquqidan farqi, subyektiv ma'nodagi mulk huquqi aniq shaxsda vujudga keladi. Faqat bu huquq shaxslar tomonidan xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarni egallash orqali qo'lga kiritiladi. Subyektiv ma'nodagi mulk huquqini vujudga keltiruvchi yuridik faktlar sifatida turli ko'rinishdagi bitimlar (masalan: oldi-sotdi, merosni qabul qilish)ni, yangi ashyoni yaratish, mulkni egallash muddatlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Subyektiv ma'nodagi mulk huquqini aniq ashyolarga tegishli subyektiv huquqlardan farqi, bunday huquq bevosita qonun hujjatlariga asoslanganligi va avvalo muddat bilan cheklanmaganligiga(muddatsiz) tayaniladi. Mulkka nisbatan boshqa huquqlar, masalan, ijara, garov shartnomalaridan kelib chiqadigan huquqlar mulkdorning irodasiga bog'liq holda vujudga kelib ma'lum bir muddatning belgilanishi bilan xarakterlanadi. Mulk huquqining davlat tomonidan himoya qilinishi mutloq xarakter kasb etadi. Hyech kim mulkdorning rozilgisiz unga tegishli mulkka nisbatan noqonuniy xarakatlarni amalga oshirishi qonun tomonidan ta'qiqlanadi. Agar bunday harakatlar sodir etilgan taqdirda mulkka yetkazilgan zarar to'liq qoplanadi (FK 14-m; 228- 231-moddalar). Jumladan; FKning 14-moddasi, 1-qismida «...huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararining to'la qoplanishini talab qilishi mumkin» degan qoidalar belgilangan. Ushbu huquq normalari mulk huquqini himoya qilishda ham to'g'ridan-to'g'ri tadbiq etiladi.

«Mulkchilik to'g'risida»gi qonun¹²ning 5-moddasiga va Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy va ommaviy shakllarda bo'ladi. Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk mulk huquqining obyektlari sanaladi. Ushbu obyektlarga nisbatan ularni egallash, foydalanish va tasarruf qilish subyektiv ma'nodagi mulk huquqi

¹² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1990.№31-33, 374-modda.

mazmunini tashkil qiladi. Ushbu huquq hajm jihatidan fuqarolik huquqi subyektlariga turlicha tanilgan va u mulk shakliga bog'liq holda tasniflanadi. FKning 168-moddasiga ko'ra, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar.

O'z navbatida xususiy mulk fuqarolar va yuridik shaxslarning mulkidan tashkil topadi. Yuridik shaxslarning mulk huquqi institutini quyidagicha ajratish mumkin: xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining mulk huquqi; jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlarning mulk huquqi; ishlab chiqarish kooperativlarining mulk huquqi va x.k.

Mulkning bir vaqtda ikki va undan ortiq shaxslarga tegishli bo'lishi nuqtai nazaridan mulk huquqining yana bir turi yuzaga keladi. Bunday mul huquqi umumiy mulk huquqi deb nomlanadi. Mulkka nisbatan huquq qanday bo'lishidan qat'iy nazar mulk yo xususiy yoki ommaviy mulk shakligi taalluqli bo'ladi. Umumiy mulk huquqida ham mulkdolar bitta mulk (meros orqali aka-ukalarga o'tgan uy-joy, ikki va undan ortiq shaxslarning birgalikda xazina topishi) yoki turli mulk shakllari(ikkita xususiy tadbirkorga tegishli mulklar; birgalikda faoliyat olib borish uchun ikkita davlat unitar korxonasiga tegishli mol-mulklar)ning subyektlari bo'la oladilar. Shu bilan birgalikda bir qancha shaxslarga tegishli umumiy mulk birgalikdagi va ulushli umumiy mulkka ajraladi.

Mulk huquqi mol-mulkning xususiyatlarini e'tiborga olib, ko'char va ko'chmas mulklarga nisbatan bo'lgan mulk huquqi sifatida ham tasniflanadi.

Mulk shaklining ikkinchi shakli bu ommaviy mulk hisoblanadi. U o'z navbatida respublika mulki va munisipal mulkdan tashkil topadi.

2.2. Mulk huquqining mazmuni

Mulk huquqi- bu mulkni egallash, foydalanish va uni tassarruf qilish huquqini qamrab oladi. Bularning har biri mulk huquqining zaruriy elementi hisoblanadi. Ushbu uchala huquqdan birining mavjud bo'lmashligi, ashyoga nisbatan mulk huquqini vujudga keltirmaydi. Masalan, ijra munosabatlarida mulk huquqini uchratmaymiz. Ijarada mulk ustida ijarachi vaqtincha (ijara muddati mobaynida) uni egallash va foydalanish huquqlarini amalga oshiradi.

Egalik qilish huquqi – mol-mulkni o'z qo'lida yoki unga nisbatan o'z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi joyda saqlab turib, mulkdorga ashyo ustidan xo'jalik hukmronligini amalga oshirishning yuridik ta'minlangan imkoniyatidir. Egalik qilish huquqi mulkdorning asosiy huquqlaridan hisoblanadi. U mulkdorning boshqa huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu huquqlarni amalga oshirishi uchun zarur vosita hisoblanadi¹³.

Mulkni egallash – bu ashyolar ustidan jismoniy hukmronlik bo'lib, u o'zida ashyolarning bus-butun saqlanishni ta'minlash, boshqarish va ushlab turishiga yo'naltirilgan shaxslar harakati majmuini ifodalaydi. Ko'char mulkka nisbatan egalik uni topshirgan paytdan boshlab vujudga keladi. Ko'chmas mulklarga nisbatdan esa ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish talab qilinadi. Masalan; uyga ko'chib kirish; yer uchastkalariga ma'lum belgilar qo'yish. Aytaylik, yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilayotgan yer uchastkasiga uni berayotgan vakolatli shaxs tomonidan qoziqlar qoqish orqali ma'lum belgilar qo'yiladi. Bu esa ushbu yer uchastkasi kimningdir egaligiga o'tganligida darak beradi.

Mulkni egallash bo'yicha mulkdorning faoliyati mulkni yaroqli holda tutish, uning to'satdan nobud bo'lishining yoki zararlanishining oldini olish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Biroq, har qanday «egallash» huquqi ham qonun bilan qo'riqlanmaydi. Jumladan, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar fuqarolarning mulki bo'lishi ham, ularni egallash ham mumkin emas. Masalan, tabiat boyliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari, radioaktiv materiallar, harbiy

¹³Ergashev V.Yo. O'zbekiston Respublikasida mulk huquqining dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollari. – T.: TDYuI, 2009, 26-b.

texnikalar va qonunda to'g'rida-to'g'ri ko'rsatib o'tilgan boshqa fuqarolik huquqining obyektlariga nisbatan egalik qilish man etilgan. Demak, bu ashyolarga nisbatan egalik huquqini amalga oshirishda qonunchilik nuqtai nazaridan cheklovlar o'rnatilgan.

Agar qandaydir sabablar bilan bunday ashyolar fuqarolarning qo'liga tushib qolgan taqdirda, ular FKning 228-moddasiga muvofiq davlat ixtiyoriga topshirilishi lozim. Bu qoida qonun tomonidan ruxsat etilgan holatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Biroq, FKning 190-moddasiga ko'ra, agar mulkdor o'ziga qarashli tarix va madaniyat yodgorligiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning yaxshi saqlanishini ta'minlamasa, zimmasida yodgorliklarni saqlash vazifasi bo'lgan davlat organlari mulkdorni yodgorlikka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishni to'xtatish haqida ogohlantiradilar. Mabodo, mulkdor ushbu talabni bajarmasa, tegishli organlarning da'vosiga ko'ra sud yodgorlikni olib qo'yish haqida qaror chiqarishi mumkin, bu yodgorlik davlat mulkiga o'tadi. Shu bilan birga bu mulkka nisbatan dastlab egalik qilgan shaxsning huquqlari barham topadi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida ashyolarni egallashning qonuniy va noqonuniy ko'rinishlari uchraydi. Qonuniy egallash – bu qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra mulkni egallash bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Qonuniy egallash huquqiy asosga tayanadi. Qonuniy egallashda ashyo ijarachida, saqlovchi va boshqalarda shartnomaga ko'ra yoki qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra turadi. Bunda mulkni egallashdan maqsad – mulkni bus-butun saqlanishini ta'minlash hisoblanadi. Mulkni egallash bo'yicha huquqlar hajmidagi farqlar, huquqning subyektiga bog'liq holda qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Masalan, Davlat - fuqarolik huquqining subyekti sifatida, mulkka musodara, rekvizitsiya qilish orqali egalik qilishi mumkin. Bunday huquq fuqarolik huquqining boshqa subyektlariga tanilmagan.

Bundan tashqari mol-mulkka nisbatan qonuniy egalik qilishni muddat nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratish mumkin: birinchidan, ashyoga nisbatan vaqtincha egalikni amalga oshirish. Masalan, ijarachiga berilgan mol-mulk ma'lum bir muddat uning egaligida bo'ladi. Ikkinchidan, ashyoga nisbatan muddatsiz egalikni

amalga oshirish. Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga muvofiq, mulk huquqi muddatsizdir.

Qonun normalariga xilof ravishda ashyolarni egallash, noqonuniy egallash deb tan olish uchun yetarli asos hisoblanadi. Noqonuniy egallashning insofli va insofsiz egallash turlari uchraydi. Ashyoni noqonuniy egallab turgan shaxs uning noqonuniy ekanligini bilmagan va bilishi mumkin bo'lmagan bo'lsa – insofli egallovchi hisoblanadi (FK 229-m). Masalan: sotib oluvchi bozorda o'g'irlangan ashyoning o'g'irlanganligini bilmay turib xarid qilganda. Ashyoga nisbatan o'z egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan shaxs-insofsiz egallovchi hisoblanadi(FK 230-m). Masalan, agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo'lmagan shaxsdan sotib olingan bo'lsa; FKning 212-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalarini jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi. O'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk huquqini ololmaydi. Chunki bunda imoratni egallab turgan shaxs insofsiz egallovchi hisoblanadi.

Mulkdan foydalanish – ashyolarning foydali xususiyatlarini jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan faoliyat hisoblanadi. Mulkdan foydalanishni amalga oshirish usullari ashyoning xususiyati bilan bog'liq. Agar ashyo iste'mol qilinmaydigan ashyo hisoblansa, undan ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat maqsadlarida foydalanish mumkinligini tushunmoq lozim. Chunki iste'mol qilinmaydigan ashyolar, qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari) hisoblanadi. Agar ashyo iste'mol qilinadigan bo'lgan taqdirda, bunda ular bir karra foydalanish natijasida yo'qolib ketadi yoki dastlabki holatida mavjud bo'lmaydi. Masalan, xom ashyo, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar.

Mulkdan foydalanishning bir qator usullari amaldagi qonunchilikda mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, fuqarolik-huquqiy usullardan biri bu bitimlar tuzish orqali mulkdan foydalanish hisoblanadi. Masalan, mulkni ijaraga, tekin foydalanishga berish. Ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqining mavjud bo'lishi, u joylashgan yer uchastkasidan foydalanish huquqini ham vujudga keltirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga qonunchilik mulkdan foydalanishda undan qanday maqsadda foydalanish nazarda tutilgan bo'lsa, shundan kelib chiqib, ba'zi bir cheklovlarni belgilaydi. Chunonchi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun foydalaniladi. Boshqa maqsadlarda bu yerlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Uy-joy, kvartiralar fuqarolarning yashashi uchun mo'ljallangani holda, boshqa maqsadda foydalanish (sexlar qurish, tadbirkorlikda foydalanish)ga ruxsat etilmaydi.

Mulkni egallash kabi undan foydalanish ham huquqiy va huquqqa xilof (nohuquqiy) bo'lishi mumkin. Agar ashyo mulkning haqiqiy egasidan olingan bo'lsa, undan foydalanish ham huquqiy sanaladi. Mabodo, mulk amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanuvchining qo'liga o'tgan bo'lsa yoki mulkdan foydalanishda boshqa shaxslarning manfaatlariga ziyon yetkazilsa, mulkdan bunday foydalanish nohuquqiy hisoblanadi va yetkazilgan zarar qoplanadi.

Mulkdan foydalanish uni tasarruf etishdan farq qiladi. Mulkdan foydalanishda mulkdor o'zining kuchi, harakati bilan mulkning foydalai xususiyatlaridan foydalanadi. Bu esa mulkdan foydalanish huquqi doirasida amalga oshirilgan faoliyat deb qaraladi. Daromad olish maqsadida mulkni vaqtincha begonalashtirishga qaratilgan bitimlar tuzishni tasarruf etish deb hisoblash mumkin.

Mulkdan foydalanishni unda ko'zlangan maqsadiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi: mulkdan uni iste'mol qilish maqsadida qo'llash. Masalan; oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i va shu kabilar. Ikkinchisi: mulkdan bevosita foydalanish. Masalan: muzlatgich, transport vositalari, kiyim-kechaklar va boshqalar.

Mulkni tasarruf etish – bu mulkdor tomonidan unga tegishli ashyoning yuridik taqdirini belgilashga qaratilgan aniq harakatlari hisoblanadi. Tasarruf etish orqali ashyo mulkdorning egaligidan vaqtincha (shartnomada nazarda tutilgan shartlarda) yoki butunlay begonalashtirilishi oqibatida chiqib ketadi. Vaqtincha mulkni tasarruf etish mulk ijarasi, omonat saqlash, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomalari asoslariga tayanib amalga oshiriladi. Jumladan; Fuqarolik Kodeksining 535-moddasiga ko'ra, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. Shartnomada nazarda tutilgan muddatlar tugagandan keyin mol-mulk egasiga qaytariladi va mulkni vaqtincha tasarruf qilish jarayoni poyoniga yetadi. Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi bo'yicha esa bir taraf (boshqaruvning muassisi) ikkinchi tarafga (ishonchli boshqaruvchiga) mol-mulkini muayyan muddatga ishonchli boshqaruvga topshiradi, ikkinchi taraf esa ushbu mol-mulkni boshqaruvning muassisi yoki u ko'rsatgan shaxs (foйда oluvchi) manfaatlarini ko'zlab boshqarish majburiyatini oladi. Mol-mulkni ishonchli boshqarishga topshirish bu mol-mulkka mulk huquqining ishonchli boshqaruvchiga o'tishiga olib kelmaydi.

Tasarruf etish huquqini amalga oshirilishi mulkka nisbatan mulkdorning mulk huquqining bekor qilishi uchun asos bo'lgani holda, boshqa shaxsda ushbu mulkka nisbatan mulk huquqini vujudga keltiradi. Mulkdor quyidagi harakatlarni sodir etishi orqali o'z mulkini boshqa shaxsga mulk qilib topshirishi mumkin. Masalan: oldi-sotdi shartnomasini tuzish. Fkning 386-moddasi 1-qismiga ko'ra, «oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini oladi...». Bu holatda sotuvchi tomonidan mulk tasarruf qilinadi.

2.3. Mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lishi

Mulk huquqining vujudga kelishi Fuqarolik kodeksida aniq belgilab qo'yilgan (FK.182-modda) FKning 182-moddasida, mulk huquqini vujudga keltiruvchi turli yuridik faktlar qayd etiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslari yuridik faktlar hisoblanadi. Bunday yuridik faktlar sifatida harakatlar va hodisalar o'rta chiqadi. Birinchi guruhga: masalan, fuqarolar va yuridik shaxslarning mulkni begonalashtirishga qaratilgan turli bitimlar tuzishi. Harakatlar insonlarning irodasiga bog'liq holda ong'li ravishda sodir etiladi. Jumladan, mulk ustida mulk huquqini vujudga keltirishda tuziladigan bitimlar ham bevosita harakat mahsuli hisoblanadi.

Yuridik faktlarning ikkinchi guruhi sifatida hodisalar e'tirof etiladi. Hodisalar shaxslarning irodasiga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga keladi. M: meros huquqiy munosabatlarini yuzaga keltiruvchi fuqaroning o'limi hodisasi. Hodisalar inson irodasiga bog'liq holda ham kelib chiqishi mumkinligini inkor etmaslik kerak. Insonlarning harakatlari natijasida ham yuridik hodisalar vujudga kelishi mumkin. Hodisaning inson irodasiga bog'liq holda vujudga kelganmi yoki yo'qmi sharti nuqtai nazaridan ikkiga ajratish mumkin: mutlaq va nisbiy hodisalar. Mutlaq hodisalar shunday hodisalarki, ularning vujudga kelishi va davom etishi, rivojlanishi inson faoliyatiga bog'liq emas. Masalan, fuqaroning o'limi.

Fuqarolik huquqida muddatlar hodisalarining nisbiy ko'rinishi sifatida ham baholanadi. Aslida muddatlar obyektiv kategoriya bo'lib, fuqarolik huquqiy munosabat subyektlarining irodasi va faoliyatiga bog'liq emas. Biroq, muddatga nisbatan, insonlar faoliyatining ta'sirini ham inkor etmaslik kerak. Muddatlar kelib chiqishi yuzasidan irodaviy hisoblanadi: muddatlar va ularning chegaralari qonunchilik normalari bilan, taraflar kelishuvi bilan va sud tomonidan belgilanishi mumkin. FKning 187-moddasiga muvofiq, mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat). Bu yerda o'n

besh yil yoki besh yil kabi belgilangan muddatlar qonun normalarida belgilab o'tilmoqda.

Mol-mulkga nisbatan egalik huquqining vujudga kelish asoslarini ikki guruhga: dastlabki va hosila usullarga ajratish mumkin.

Mulk huquqi ko'pincha yangi narsani yaratish jarayoni bilan vujudga keladi. Qonunga va boshqa huquqiy aktlarga rioya qilingan holda shaxs tomonidan o'zi uchun yaratilgan, ishlangan narsaga nisbatan uning o'zida huquq paydo bo'ladi. Agar biron-bir shaxs o'z mulkiga nisbatan egalik huquqini yo'qotgan bo'lsa yoki u o'z mol - mulkini tashlab yuborgan yoxud o'z ixtiyoridan chiqarib yuborgan bo'lsa, qonuniy asoslarga muvofiq, uni olgan shaxsda bunday mol - mulkka nisbatan egalik huquqi paydo bo'lishi mumkin. Bunday hollarda mol-mulkga shaxs egalik huquqning vujudga kelishi boshqa shaxsning ushbu mol-mulkga nisbatan egalik huquqi bilan bog'liq emas. Mol – mulkka egalik huquqining bunday yo'l bilan vujudga kelishiga **dastlabki usul** deyiladi. Bu usulda ashyoga nisbatan dastlab biron-bir kishining mulk huquqi tanilmagan bo'ladi.

Mol- mulk odatda mulk huquqining obykti sifatida qonun qoidalarga rioya qilingan holda bir shaxs egalik huquqidan ikkinchi shaxsga o'tadi. Bunday holarda mol- mulk o'zining dastlabki sifatini yo'qotmaydi, faqat unga egalik qiluvchi subyektlari o'zgaradi. Huquq va burchlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishiga huquq vorisligi deyiladi. Huquq vorisligi asosan oldi-sotdi, ayirboshlash shartnomalari, hadya va boshqa bitimlar bilan bog'liq. Huquq vorisligi meros qoldirish, yuridik shaxsni qayta tashkil etishi hollarida ham yuz beradi. Mulk huquqining vorislik buyicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi **hosila usul** deyiladi. Hosila usulda ashyoga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi dastlabki mulkdorning huquqlariga asoslanadi.

Mol – mulkka dastlabki usulda egalik huquqining vujudga kelishi, mulk egasi huquq va burchlarning doirasi qonun bilan belgilanadi. Hosila usulda mulk egasining erki, xohishi, uning huquq va burchlari, taraflarning kelishuvi va davlat boshqaruv organlarning aktlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Fuqarolar va tashkilotlarning xo'jalik va mehnat faoliyati natijasida qo'lga kiritilgan, yangi

olingan sanoat va qishloq xujalik maxsulotlarga egalik huquqining vujudga kelishi dastlabki usulining asoslaridan hisoblanadi. Xulosa qilganda ashyoga nisbatan mulk huquqini egallashning dastlabki usuliga quyidagilarni kiritish mumkin: Yangi mol-mulkni yaratish; mol-mulkdan xo'jalik usulida va o'zgacha usulda foydalanish natijalari, shu jumladan, olingan mahsulot, hosil va boshqa daromadlar; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; egasiz ashyoga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish va boshqalar.

Mulk huquqini dastlabki usulda egallashning asoslaridan biri bu yangi mol-mulkni yaratish va ko'paytirish hisoblanadi. Yangi yaratilgan ko'char yoki ko'chmas ashyolarga nisbatan mulk huquqi uni yaratgan shaxsga qonun normalarining talablariga muvofiq belgilanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, yangi yaratilgan ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqi materialning egasi kim bo'lsa ushanga tegishli bo'ladi. Agar materialni qayta ishlovchi shaxs uni yo'qotgan yoki nobud qilgan bo'lsa, mulkdor u shaxsdan ashyoni qaytarishni va yetkazilgan zararni undirishni talab qilish huquqiga ega.

Egasiz ashyolarga nisbatan mulk huquqini qo'lga kiritish mulk huquqini vujudga kelishining dastlabki usullariga tegishlidir. Egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo egasiz ashyo hisoblanadi. Egasiz ashyolar guruhiga quyidagilar kiradi: mulkdor tomonidan tashlab ketilgan ashyolar; topilma; qarovsiz hayvonlar; xazina.

Tashlab ketilgan ashyolar bu mulkdor tomonidan to'g'ridan-to'g'ri mulk huquqi rad qilingan va saqlanmagan ashyo hisoblanadi. Bu ashyolar boshqa shaxslarning mulkiga egasiz ashyolar to'g'risidagi belgilangan qoidalarga muvofiq o'tadi. Tashlab ketilgan ashyolar boshqa shaxslarning egaligiga o'tgunga qadar, dastlabki mulkdorning mulk huquqi saqlanib turadi. Bu ashyoni dastlabki mulkdorga qaytarish imkoniyati mavjud ekanligidan darak beradi.

Fuqarolik huquqida egasiz ko'char va ko'chmas ashyolarning huquqiy holati belgilab berilgan. Egasiz ko'char ashyolarga nisbatan mulk huquqi qonun normalarida belgilangan shartlarga ko'ra (topilma, xazina, qarovsiz hayvonlar)

yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin.

Boshqa ko'chmas ashyolar kabi egasiz ko'chmas ashyolar ko'chmas ashyolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. Egasiz ko'chmas ashyo hisobga olinganidan keyin uch yil muddat o'tgach hych kim tomonidan bu ko'chmas mullka nisbatan ma'lum bir huquq ilgari surilmasa, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolati bo'lgan organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bu ashyoni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin. Fuqarolik prosessual Kodeksining 298-moddasiga ko'ra, mol-mulkni egasiz deb topish haqidagi ariza moliya organi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan mol-mulk turgan joydagi sudga beriladi. Arizada qaysi mol-mulkni egasiz deb topish lozimligi ko'rsatilishi, shuningdek mol-mulk egasini belgilashning imkoni yo'qligini tasdiqlovchi dalillar keltirilishi kerak. Sudya ishni sudda ko'rishga tayyorlashda mol-mulk kimga tegishli ekanligi to'g'risida ma'lumot berishi mumkin bo'lgan shaxslarni (mol-mulkning mulkdorlari, unga amalda egalik qilib turganlar, qo'shnilar va boshqalarni) aniqlaydi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan mol-mulkka doir mavjud ma'lumotlarni so'raydi. Sud mol-mulkning mulkdori yo'q yoki noma'lum deb topsa, mol-mulkni egasiz deb topish va uni davlat mulkiga o'tkazish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi.

Sudning o'zining hal qiluv qarori bilan egasiz ko'chmas mulkni davlat mulkiga o'tkazishni rad qilgan taqdirda esa, bu ashyo uni tashlab ketgan mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin.

Topilmaning huquqiy holati FKning 192-194-moddalari bilan belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs avtomatik ravishda uning mulkdori bo'la olmaydi. Yo'qolgan ashyoni topib olgan shaxs bu haqda (1)

uni yo'qotgan shaxsni yoki (2) ashyo egasini yoxud (3) uni olish huquqiga ega bo'lgan o'zga ma'lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyoni shu shaxsga qaytarishi shart. Agarda, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo'lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo'lmish shaxsga topshirilmog'i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyoni topib olgan shaxsning huquqlarini qo'lga kiritadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs noma'lum bo'lsa yoki uning manzili ma'lum bo'lmasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to'g'risida milisiyaga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ma'lum qilishi shart.

Ashyoni topib olgan shaxs uni o'zida saqlab turishga haqli. Bundan tashqari ashyoni saqlash uchun ashyoni topib olgan shaxs milisiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga yoxud ular ko'rsatgan shaxsga topshirishga haqli hisoblanadi.

Topilma to'g'risida milisiyaga yoki tegishli davlat organiga xabar qilingan paytdan e'tiboran **olti oy mobaynida** yo'qolgan ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxs aniqlanmasa hamda ashyoni topgan shaxsga yoxud milisiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga ana shu ashyoga bo'lgan o'z huquqi to'g'risida arz qilmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi. Mabodo, ashyoni topib olgan shaxs topilgan ashyoni mulk qilib olishdan bosh tortsa, ashyo davlat mulkiga o'tadi.

Ashyoni topib olgan hamda uni olishga haqli bo'lgan shaxsga qaytarib bergan shaxs ana shu shaxsdan, ashyo davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tgan hollarda esa - tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan ashyoni saqlash, topshirish yoki sotish bilan bog'liq xarajatlarni, shuningdek ashyoni olishga haqli bo'lgan shaxsni topish uchun ketgan xarajatlarni undirish huquqiga ega. Ashyoni topib olgan shaxs uni olishga haqli bo'lgan shaxsdan topilma uchun ashyo qiymatining **yigirma foiziga** qadar miqdorida mukofot talab qilishga haqlidir. Basharti, topib olingan

hujjatlar yoki o'zga ashyolar ularni olishga haqli bo'lgan shaxsning o'zi uchungina qimmatga ega bo'lsa, mukofot miqdori shu shaxs bilan kelishuv asosida, kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda esa - sud orqali belgilanadi. Topilgan ashyoni qaytarib berishni talab qilishga haqli bo'lgan shaxs topilma uchun ko'pchilik o'rtasida mukofot va'da qilgan bo'lsa, u ko'pchilik o'rtasida va'da qilingan mukofotni o'sha shartlarga muvofiq to'laydi. Agarda, ashyoni topib olgan shaxs topilma haqida xabar qilmagan bo'lsa yoki uni yashirishga uringan bo'lsa, mukofot olish huquqi vujudga kelmaydi.

Mulk huquqini dastlabki asosda vujudga kelishida egasiz ashyolar qatorida **qarovsiz hayvonlar** ham e'tirof etiladi. Qarovsiz hayvonlar sifatida qarovsiz qolgan yoki adashgan chorva mollari(otlar, eshaklar, mollar, tuyalar, qo'ylar va x.z.) yoki uy hayvonlari (mushuklar, itlar, maymunlar va boshqalar)ni ta'kidlash mumkin. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxs ularni egasiga qaytarishi shart. Agar hayvonlarning egasi yoki uning qayerdaligi noma'lum bo'lsa, uni tutib olgan shaxs tutib olgan paytdan boshlab **uch kundan kechiktirmay** topilgan hayvonlar to'g'risida milisiyaga, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga xabar qilmog'i lozim. Bu shaxslar esa, hayvonlarning egasini qidirish choralari ko'radilar.

Hayvonlarning egasi qidirilayotgan vaqtda ularni saqlash hamda ulardan foydalanish uchun tutib olgan shaxsda qoldirilishi yoxud zarur sharoiti bo'lgan boshqa shaxsga saqlash va foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxsning iltimosiga ko'ra hayvonlarni boqishi uchun zarur sharoiti bo'lgan shaxsni topish hamda hayvonlarni unga topshirishni milisiya, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi amalga oshiradi. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxs hamda bu hayvonlar saqlash va foydalanish uchun berib turilgan shaxs ularni lozim darajada saqlashlari shart va hayvonlar nobud bo'lishi yoki shikastlanishi uchun aybdor bo'lsalar, hayvonlarning narxi doirasida javobgar bo'ladilar.

Bundan tashqari, qarovsiz hayvonlarning huquqiy holatini aniqlashda topilmaga tegishli bo'lgan huquq normalari analogik tarzda qo'llaniladi.

Egasiz ashyolar sifatida qonun xazinani alohida ko'rsatib o'tadi. Egasi aniqlanishi mumkin bo'lmagan yoki qonunga binoan huquqlarini yo'qotgan xazina, ya'ni yerga ko'milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoxud qimmatbaho buyumlar Xazina sifatida talqin qilinadi. Bu xazina yashirib qo'yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va shu kabilar) mulkdori bo'lgan shaxs va xazinani topgan shaxs mulkiga, agar ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, teng ulushlarda o'tadi. Agar ma'lum bir shartnoma tuzilgan bo'lsa, ulush kelishuvga ko'ra aniqlanadi.

Xazina u yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining roziligisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina u topilgan yer uchastkasining yoki boshqa mol-mulkning egasiga topshirilishi kerak. Tarix va madaniyat yodgorliklari jumlasiga kiradigan ashyolardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat mulkiga topshirilishi kerak. Bunda xazina yashirib qo'yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulkning egasi va xazinani topgan shaxs birgalikda xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olish huquqiga egadirlar. Agar ular o'rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mukofot bu shaxslar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Bunday xazinani u yashirib qo'yilgan mol-mulk egasining roziligisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs topib olsa, bu shaxsga mukofot to'lanmaydi va xazina batamom mulkdorning ixtiyoriga o'tadi.

Xazina topish uchun qazishma va qidiruv ishlarini olib borish mehnat yoki xizmat vazifalariga kiradigan shaxslarga nisbatan esa ushbu qoidalari qo'llanilmaydi.

Mol-mulkka egalik huquqining **hosila usulda** vujudga kelishida ushbu egalik huquqi odatda, mol-mulkni oluvchiga topshirish paytida o'tadi. Mulk huquqi topshirishi payti haqidagi umumiy qoida qonun yoki shartnoma bilan o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. Agar mol-mulkning boshqa shaxsga berish haqidagi shartnoma davlat ro'yxatidan o'tkazilishi yoki notarial tasdiqlanishi kerak bo'lsa, mol-mulkni oluvchiga mulk huquqi shartnoma ro'yxatdan o'tgandan yoki tasdiqlangan paytdan

boshlab, agar shartnomani ham notarial tasdiqlash ham davlat ro'yxatidan o'tkazish zarur bo'lsa – ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Xulosa qilganda mol-mulkka hosila usulda egalik qilish huquqi quyidagi asoslarga ko'ra vujudga keladi: mol-mulk olish-sotish, mahsulot yetkazib berish, kontraktasiya, ko'chmas mulkni sotish, ayirboshlash, renta, hadya qilish shartnomalari hamda qonun bilan ta'qiqlanmagan boshqa bitimlar asosida olinganda. Bundan tashqari hosila usullarga mol-mulkni xususiylashtirish, nasionalizasiya, rekvizisiya va musodara qilish ham tegishlidir.

Mulk huquqini vujudga keltiruvchi usullardan yana qo'ydagilarni ko'rish mumkin.

1. Umumfuqarolik usullar. Bu usul fuqarolik huquqining har qanday subyekti tomonidan mol-mulkni qo'lga kirtishda foydalanilishi mumkin.
2. Maxsus usullar (nasionalizasiya, konfiskasiya, rekvizisiya). Bu usul qat'iy chegaralangan subyektlar tomonidan amalga oshiriladi.

Nasionalizasiya - fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli nasionalizasiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdan iborat. Mazkur mol-mulk keyinchalik denasionalizasiya qilingan taqdirda, agar qonunlarda o'zgacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, sobiq mulkdorlar ushbu mol-mulkning qaytarib berilishini talab qilishga haqlidirlar. Masalan, mulkdorga taalluqli bo'lgan san'at asari fuqarolarning umum manfaatini ko'zlab uni qiymati tegishli mutaxassislar tomonidan baholanib, nasionalizasiya qilinishi mumkin.

Tabiiy ofatlar, avariya, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tushadigan boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishi mumkin (rekvizisiya). Rekvizisiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vaziyatlarning amal qilishi to'xtaganidan keyin rekvizisiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkni o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o'zga huquqbuzarlik qilganlik uchun haq to'lamasdan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin (musodara). Masalan, fuqaro tegishli bojxona qoidalarini buzib mamlakat ichkarisiga tovarlar olib kirayotgan taqdirda, uning tovarlari olib qo'yilishi va davlat hisobiga musodara qilinishi mumkin.

Mulk huquqining bekor bo'lish asoslarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Mulk huquqining bekor qilishining ko'pchilik usullari bir vaqtda bir shaxsda mulkka nisbatan mulk huquqini bekor qilishga va ayni vaqtda ikkinchi shaxsda bu mulk ustida mulk huquqini vujudga keltirishga qaratilgan yuridik faktlar. Jumladan; mulkdor tomondan o'z mulkini boshqa shaxsga begonalashtirilishi (turli xil bitimlarni tuzish orqali); mulkdorning mulk huquqidan voz kechishi; majburiyat bo'yicha yetkazilgan zararni undirishni mol-mulkka qaratilishi; xo'jasizlarcha munosabatda bo'linayotgan madaniyat yodgorliklarining, uy hayvonlarining olib qo'yilishi; rekvizitsiya, musodara; nasionalizatsiya; xususiyashtirish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

2. Bu guruhda mulk huquqini bekor qilishga qaratilgan yuridik faktlar soni ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Bularga (a) mulkdan foydalanish natijasida mulkning yo'q bo'lishi va (b) mulkning nobud bo'lishi bilan bog'liq holatlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, iste'mol qilinadiga mol-mulk (oziq-ovqat mahsulotlari), ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan xom-ashyolar, materiallar, asbob-uskunalar foydalanish natijasida ularga nisbatan mulk huquqi bekor bo'ladi. Mol-mulk fors-majior holatlar (zilzila, tabiiy ofatlar) da nobud bo'lishi mumkin. Bunday holatda hech kim mol-mulkning nobud bo'lgani uchun javob bermaydi. Ushbu guruhga kiruvchi yuridik faktlar boshqa shaxslarda mulkka nisbatan mulk huquqini vujudga keltirmaydi.

Xulosa

«Ashyoviy huquq masalalari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, ashyoviy huquqni ashyolarga nisbatan mutloq egalik qilish imkoniyatini ta'minlab beradigan huquq sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Ashyoviy huquq doirasiga nafaqat mulk huquqi, balki xo'jalik yuritish va operativ boshqarish, yer uchastkalariga doimiy egalik qilish, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkalariga egalik qilish va servitut huquqlarini ham kiritish mumkin.

Ikkinchidan, ashyoviy huquq predmeti sifatida xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolarni e'tirof etish mumkin.

Uchinchidan, ashyoviy huquqlarni bu huquqlarga nisbatan egalik qilish huquqini amalga oshiruvchi subyektlarga nisbatan ham farqlash kerak. Jumladan, mulk huquqi fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilarining barchasi tomonidan amalga oshirilgani holda, xo'jalik yuritish huquqi faqat tijoratchi yuridik shaxslarga, operativ boshqarish huquqi faqat notijoratchi tashkilotlar asosan muassasalarga, yer uchastkalaridan doimiy foydalanish va unga egalik qilish huquqi ham fuqarolar ham yuridik shaxslarga, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkalariga egalik qilish huquqi faqat fuqarolarga tegishlilikini nazardan qochirmaslik kerak.

To'rtinchidan, ashyoviy huquqlarni uchinchi shaxslar tajovuzlaridan himoya qilishda vindikasion va negator da'vo kabi ashyoviy – huquqiy usullardan tashqari majburiyat – huquqiy va boshqa fuqarolik huquqi institutlariga tayanish ham foydadan xoli emas.

Takliflar: Mulk bilan bog'liq muammolar o'ta jiddiy masala ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, ashyo ustida o'rnatiladigan huquqiy institutlar mohiyatini o'zida jamlagan risolalar, o'quv adabiyotlari nashr etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero har biri kishi o'zining ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mezonlardan biri mulk va unga tegishli qoidalarni, huquqiy vositalarni bilsa, ularni

idrok eta olsa, ijtimoiy hayotda ko'plab uchraydigan kelishmovchiliklarning oldi olingan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustivorligini ta'minlash barcha islohat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir // Turkiston 2008 9 Fevral № 11 (15130)
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston. 2009.- 56 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Inson va qonun. № 52(669) 2009 yil 6 dekabr.
5. Karimov I.A. mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2010 yil. 13 noyabr. №220 (5135).
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston. 2011.- 432 B.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. - T.: Adolat.2007. 520 b.
8. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Mulkchilik to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1990.№31-33, 374-modda.
9. O'zbekiston Respublikasining qonuni 26.04.1996 y.n 221-i «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» O'zR 10.10.2006 y. O'RQ-59-son qonuni
- 10.O'zbekiston Respublikasining «Iste'mol krediti to'g'risida»gi qonuni 06.05.2006 y. O'RQ-33. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2006 yil, 19-son, 160-modda.
- 11.O'zbekiston Respublikasining qonuni 30.08.2001 y. «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida» mazkur qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan O'RQ 19.09.2007 y. o'rq-111-son qonuni

- 12.O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi qonuni 2001 yil 6 dekabr
- 13.O'zbekiston Respublikasining qonuni. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2000.№5-6, 140-modda.
- 14.O'zbekiston Respublikasining qonuni. «Fermer xo'jaligi to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil 5-6 son, 86-modda.
- 15.«Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y.9-son, 170- modda.
- 16.O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi qonuni 06.12.2001 y. 310-ii
- 17.O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida» qonuni 14.04.1999 y.
- 18.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi: Darslik. II-qism //X.Rahmonqulov, I.Zokirov tahriri ostida._T.: Adolat. 1999.
- 19.Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoye pravo. Kniga pervaya: Obhiye polojeniya. M.: 2002. s 848;
- 20.Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoye pravo. Kniga vtoraya: Dogovory o peredache imushchestva. M.: «Statut», 2001. s 553;
- 21.Usmonova M. O'zbekistonda ijtimoiy himoya: fuqarolik-huquqiy jihatlari. – T.: TDYuI. 2005.
- 22.Sindarov K. Qishloq xo'jaligi sohasidagi shartnomalar.–T.:2003.248 b.
- 23.Shartnoma huquqi. – T.: TDYuI. 2006. – 337 b.
- 24.Ahmonov N., Sindarov K. Qishloq xo'jaligida shartnoma intizomi. – T.: Yangi asr avlodi. 2004.- 115 b.
- 25.Sindarov K., Jumanazarov I. Qishloq xo'jaligini kimyolashtirishga oid shartnomalar. – T.:2006. 194 b

- 26.Shodmanov F.Yu. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.- T:«Ma'naviyat» 2001.144 b.
- 27.G'ulomov A. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik. O'quv-uslubiy qo'llanma. SamDU nashri. 2008.
- 28.Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. T. «Moliya», 2001 yil.
- 29.Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi.1 qism. T.: Adolat. 1996. 206 b.
- 30.Raxmonqulov X.R. Mulk huquqi. T.: «Adolat». 1998. 78b.
- 31.Raxmonqulov X. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. 1 jild. T. 1997. 392 b.
- 32.Raxmonqulov X. Majburiyat huquqi. – T.: Adolat. 2006.
- 33.Ro'ziyev R. Mulk ijarasi shartnomasi. – T.O'zMU. 2005.- 220 b
- 34.Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. - T.: Adolat. 2006. 384 b.
- 35.Ruzinazarov Sh.N. Tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish. T. 2004.
- 36.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi qo'shma Plenumining qarori. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida. № 02/124. 2005 yil. 31 mart.

Elektron resurslar

1. <http://Allpravo.ru>
2. <http://Internet-law.ru>
3. <http://dissertstionl.narod.ru./avtorefeatsl>
4. <http://www.library.by/data>
5. <http://www.Lawportal.ru>
6. <http://www.Legislature.ru>